O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

# Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2022- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

# Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da**




**2020- yil**




**2021- yil**




**2022- yil**

2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM**dagi ulushi **76,8** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,4** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-sentabrida **3,3** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **22,0** foizga kam demakdir.

## 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1156** ta, sanoatda **576** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **677** ta, qurilishda **242** ta, yashash va ovqatlanishda **200** ta, axborot va aloqada **43** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## 2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 97,3 |
| Sanoat | 41,1 |
| Qurilish | 91,9 |
| Investitsiya | 52,9 |
| Savdo | 92,0 |
| Xizmatlar | 65,1 |
| Eksport | 59,0 |
| Import | 69,6 |

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 26648 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 3284 |

2022- yilning yanvar-sentabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2022- yil yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

- Savdo — 34,5 %
- Sanoat — 17,8 %
- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 15,0 %
- Qurilish — 11,1 %
- Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar — 6,8 %
- Tashish va saqlash — 3,2 %
- Axborot va aloqa — 1,3 %
- Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish — 1,5 %
- Boshqa faoliyat turlari — 8,8 %




Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Shahar va tumanlar bo‘yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Termiz shahri – 16,5 %, Denov – 11,6 %, Sherobod – 8,2 %, Jarqo‘rg‘on – 7,9 %, Qumqo‘rg‘on – 6,6 % , Sho‘rchi – 6,3 % va Boysun – 5,8 % hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**




**Ma’lumot uchun: 2022- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:**

**Savdoda**
**1156 ta**

**Sanoatda**
**576 ta**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida**
**677 ta**

**Qurilishda**
**242 ta**

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 12,2 birlikni tashkil etdi.

**Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga koʻra***




2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Termiz tumanida 26,8 birlik, Termiz shahrida 26,0 birlik, Qiziriq tumanida 14,6 birlik, Boysun tumanida 13,7 birlik va Sherobod tumanida 12,7 birlikni tashkil etgan.

**2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra***

**Eng yuqori ko‘rsatkich**
**Termiz tumani**
**- 26,8 birlik.**

**O‘rtacha ko‘rsatkich**
**Bandixon tumani**
**- 11,6 birlik.**

**Past ko‘rsatkich**
**Sariosiyo tumani**
**- 8,9 birlik.**

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi






2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **76,8 %** ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-sentabrida **77,8 %**).

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 97,9 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 59,0 % ini tashkil etdi.






Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida 100,0%, Oltinsoy tumanida - 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Jarqo'rg'on tumanida – 5,5 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **85,8** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **69,6** % ini tashkil etdi.




**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bandixon - 100,0 %, Boysun – 100,0 %, Qiziriq – 100,0 %, Oltinsoy – 100,0 %, Qumqo‘rg‘on – 100,0 %. Eng past ko‘rsatkich Sariosiyo tumanida – 13,5 % ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

## 2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2191,7** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (349,0 mlrd. so‘m), Sho‘rchi (269,0 mlrd. so‘m), Denov (259,9 mlrd. so‘m), Qumq‘o‘rg‘on (165,6 mlrd. so‘m) va Muzrabot (155,7 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qiziriq tumanida (43,4 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi**

2022- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **41,1** % ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon (100,0 %), Boysun (94,8 %), Oltinsoy (94,7 %), Angor (90,7 %), Muzrabot (85,2 %) va Sariosiyo (49,3 %), tashkil etdi. Jarqo'rg'on tumanida (16,8 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi**

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **12022,2** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,0** % ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **9,3** % ga oshganligi kuzatildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (2843,8 mlrd. so‘m), Termiz shahri (2099,1 mlrd. so‘m), Sho’rchi (1203,1 mlrd. so‘m), Sherobod (697,0 mlrd. so‘m), Jarqo’rg’on (679,0 mlrd. so‘m) va Angor (567,0 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4415,0** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **91,9** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **111,2** % ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (1263,8 mlrd. so‘m), Denov (435,7 mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (333,1 mlrd. so‘m), Boysun (292,6 mlrd. so’m), Termiz (291,8 mlrd. so‘m), Sariosiyo (289,5 mlrd. so‘m), Angor (243,9 mlrd.so‘m) va Sherobod (231,2 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati






Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6053,0** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,1** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **111,6** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Termiz shahri (1178,6 mlrd. so‘m), Denov (748,8 mlrd. so‘m), Sariosiyo (393,5 mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (388,0 mlrd. so‘m), Sherobod (380,3 mlrd. so‘m), Sho‘rchi (367,2 mlrd. so‘m) va Qumqo‘rg‘on (366,6 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati



# 2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi koʻrsatkichlari

**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 83,4 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 107,1 % ni tashkil qildi.




Yuk aylanmasida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 87,3 % ni tashkil etgan boʻlib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 93,9 % ni tashkil qildi.




Yoʻlovchi tashishda

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yoʻlovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,2 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 100,9 % ni tashkil qildi.




Yoʻlovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yoʻlovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 100,5 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **1102** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 330 (30,0 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 705 (64,0 %) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 67 (6,0 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofir-malarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 7,4 % (81 ta), sanoatda – 13,6 % (150 ta), qurilishda – 12,8 % (141 ta) , savdoda – 39,1 % (431 ta) va xizmatlar sohasida – 27,1 % (299 ta)ni tashkil etdi.

**2022- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**






# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahri (199 ta), Denov (129 ta), Jarqo‘rg‘on (85 ta), Sho‘rchi (81 ta) va Qumqo‘rg‘on (76 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning <u>joriy davrda</u> iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




**2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning <u>yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli</u> bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 32,6 % ni, xizmatlarda 30,4 % ni, savdoda 30,8 % ni va sanoatda 27,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda 65,2 xizmatda 65,2 % ni va sanoat sohasida 62,7 % ni tashkil etdi.

2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarnig **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmat sohasida 45,5 % ni qurilishda 55,3 % ni,, savdoda 45,2 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 54,4 % ni, savdoda 52,9 % ni va xizmatda 51,8 % ni tashkil etdi.


**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Tel.: +998 (76) 225-65-68


.